

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025-yilning 3-choragida amalga oshirilgan ishlar

Boshqarmada o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025- yilning 9 oylik faoliyatida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Shuningdek, sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tizimda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarni tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq, amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar batafsil muhokama qilindi.

Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025- yilning 9 oyligida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Jumladan, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi 108 396,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yil bilan taqqoslaganda 7,9 foizga o'sdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 137 300,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 108,5 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 17 399,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 foizga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2024- yilga nisbatan 128,9 foiz o'sish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 17 788,7 mlrd. so'mni, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,6 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 11 549,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan 110,2 foizga yetdi, hamda viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 1 286 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 975,4 mln. AQSH dollarini va import 310,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2025- yil 3- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning

ijro holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturiga asosan 8 turdagi o'quv kurslarida 25 nafar xodimlarning malakasi oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-sonli qarori talablari asosida ommaviy axborot vositalarida statistika faoliyatiga oid 101 ta televideniya, 101 ta radio, 221 ta gazeta hamda boshqarmaning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda 1 203 ta statistik ko'rsatkichlar chop etildi.

Hisobot davrida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda 232 ta statistika ishlari bajarildi va iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy statistik ma'lumotlar har oy va har chorakda Milliy statistika qo'mitasi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Tayyorlangan tahliliy statistik ma'lumotlar infografika, diagramma va videoroliklar ko'rinishida Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi orqali efirga uzatildi.

Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish maqsadida, viloyat bo'yicha 36 marotaba seminarlar va 54 marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi hamda 2 523 ta buklet va qo'llanmalar tarqatildi.